



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
VI-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
VI-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ISLOMIY BANK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI QONUNNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH: O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY INKLYUZIVLIKNING KONTSEPTUAL, METODOLOGIK VA INSTITUTIONAL ASOSLARI	12
Abdullayev Azamat Akbar o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В ОРГАНИЗАЦИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ НА ОСНОВЕ ОЦЕНКИ ОПЕРАТИВНОСТИ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО ЦИКЛА	17
Джуманиязова Сабина Михайловна	
PAXTA TOZALASH USKUNALARI DETALLARINING XIZMAT MUDDATINI OSHIRISH UCHUN GETEROKOMPOZIT POLIMER MATERIALLAR TARKIBINI ISHLAB CHIQUISH	22
Bakirov Lutfillo Yuldoshaliyevich	
O'ZBEKISTONDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATI: TAHLIL VA NATIJALAR.....	29
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Akbarov Diyorbek Ashirali o'g'li	
TRANSFORMING CORPORATE GOVERNANCE TO MEET THE CHALLENGES OF MODERN BUSINESS MODELS.....	32
F. Djalilov	
O'ZBEKISTONDA QURILISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ULARNI BAHOLASH	41
Abdullayev Axror Jaxbarovich	
ЭКОНОМИКА ГОРОДСКОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРИФИКАЦИИ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	47
Махкамова Надира Саидмуратовна	
MINTAQA TUMANLARI O'RTASIDAGI INVESTITSIYA VA BANDLIK NOMUTANOSIBLIK LARI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA)	55
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
BUXORO VILOYATI IQTISODIYOTINING STRUKTURAVIY TRANSFORMATSIYASI: AGRAR MODEL DAN DIVERSIFIKATSIYALASHGAN TUZILMAGA O'TISH TENDENSIYALARI (2020-2024-YILLAR)	60
Ergashev Sherali Erali o'g'li	
IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISHNING HOZIRGI BOSQICHIDA BANK TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY PRINSIPLARINI JORIY ETISH.....	65
Tashmatov Shuhrat Hamrayevich	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA XIZMATLAR KO'RSATISH IMKONIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	71
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
O'ZBEKISTONDA AVLODLARARO TRANSFERTLARNING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY MAZMUNI	77
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna	
To'rayev Mirzohid Hoshim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	83
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	



IQTISODIYOTDA SHAFFOFLIK, ISHONCH VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHDA AUDITORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA ZARURLIGI.....	88
Sabirova Nodira Komil qizi	
RAQAMLI VALYUTALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	95
Nabiyeva Zilola Saydulla qizi	
XORAZM VILOYATIDA HUDUDIY IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI	101
Avazbek Xalbekov	
IMPLEMENTATION OF PARETO ANALYSIS, SENSITIVITY ANALYSIS AND CVP MODELING TOOLS AT SATURN METAL LLC	108
Musaeva Shoira Azimovna	
YOG'-MOY KORXONALARINING TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHDA SCOR (SUPPLY CHAIN OPERATIONS REFERENCE) MODELIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	116
Yuldashev Abduxakim Abdulkarimovich	
ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПРИЗНАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ НЕФОРМАЛЬНОГО И ИНФОРМАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНА.....	122
Анвар Аллабергенов	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLARNING YASHIL INNOVATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI.....	128
Allanazarova B.K.	
BIOIQTISODIYOT-BARQAROR RIVOJLANISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARIDAN BIRI.....	135
Azimova Muxlisa Alisherbekovna	
KICHIK BIZNES TIZIMINING SINERGETIKEKONOMETRIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH VA UNING PARAMETRLARINI BAHOLASH.....	139
Atamuratova Gulrux Muzafarovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	145
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
KIMYO SANOATI KORXONALARINING DIVERSIFIKATSIYALASHUV DARAJASINI NORMALLASHTIRILGAN ENTROPIYA INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH.....	149
Razikov Otabek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA YO'NALISHLARI.....	157
Matkabalova Dilorom Xalilullayevna	
MINTAQA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY KO'RSATKICHLARNI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH. (Xorazm viloyati misolida)	165
Bekjanov Dilmurod Yuldashevich	
Narmetova Dilafruz Azamatovna	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	170
Ахмедова Шахноза Козим кизи	
KREDITLASH VA MIKROQARZ TIZIMINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI	175
Elbekov Jasur Ergash o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AHOLINING UZOQ MUDDATLI FOYDALANILADIGAN TOVARLAR BILAN TA'MINLANISH DARAJASINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	181
Sharipova Bibijon Baxtiyorovna	



ВНЕДРЕНИЕ ЦВЕТОВОЙ СИСТЕМЫ ПАКЕТОВ ДЛЯ РАЗДЕЛЬНОГО СБОРА ТВЁРДЫХ БЫТОВЫХ ОТХОДОВ В Г. ТАШКЕНТЕ: АДАПТАЦИЯ КОРЕЙСКОЙ МОДЕЛИ НА УРОВНЕ ДОМОХОЗЯЙСТВ	189
Джусупов Кубанычбек	
ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISHNING HUQUQIY MEKANIZMLARI: ZAMONAVIY YONDASHUV VA INNOVATSION YECHIMLAR.....	196
Shamuratov Shahzod Janibek o'g'li	
SHAHARSOZLIKDA BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASINI JORIY ETISH	200
Eshov Sherko'zi Asatulloyevich	
THE ROLE OF TAXES IN THE FORMATION OF LOCAL BUDGET REVENUES	205
Kimsanbaeva Maftuna Bakhodirovna	
DETERMINANTS OF STAKEHOLDER SATISFACTION WITH CUSTOMS CLEARANCE IN UZBEKISTAN: AN EMPIRICAL ANALYSIS	209
Khanifakhon Solikhova	
BANDLIKNI TA'MINLASHNING INNOVATSION YO'NALISHLARI (Xorazm viloyati misolida).....	213
Z. Sh. Matniyozova	
JIZZAX VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI VAHOLASH VA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI PROGNOZLASH	218
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
ИННОВАЦИОННЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ НИЗКОУГЛЕРОДНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА.....	224
Расулкулов Жамшидбек Акрамкулович	
KORPORATIV BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI.....	233
Komilova Guli Bagandik qizi	
THE ROLE OF DIGITAL INFRASTRUCTURE IN PROMOTING GREEN ECONOMIC GROWTH: EVIDENCE FROM CENTRAL ASIAN ECONOMIES.....	238
Eshboyev Mirjalol Baxrom o'g'li	
Ozatbekova Ozodaxon Nodirbek qizi	
ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОЕ ИНТЕРВАЛЬНОЕ ОЦЕНИВАНИЕ СРЕДНЕГО ЗНАЧЕНИЯ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ, ПРИТЯГИВАЮЩЕГОСЯ К УСТОЙЧИВОМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЮ.....	250
Турсунов Гафур Таирович	
TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY HISOBOTI MUSTAQIL AUDITINING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: BANK FAOLIYATIGA XOS RISK OMILLARINI TASNIFLASH.....	259
Ibragimov Nodirbek Bahodir o'g'li	
ДЕМОКРАТИК TANLOV VA PROGRESSIV SOLIQQA TORTISHNING BARQARORLIGI	266
Malika Sharipova Maxmudjon qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA YASHIL ENERGETIKA MANBALARINI UTILIZATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	273
Ibadov Shoxrux Axmatilloevich	
EKONOMETRIK MODELASHTIRISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI IQTISODIY FAOLIYATINI PROGNOZLASH: 2030-YILGACHA SSENARIY TAHLILI.....	277
Fayzullayev Javlonbek Sultonovich	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA MARKETING DASTURINING O'RNI.....	283
Musayeva Shoira Azimovna	
O'ZBEKISTONDA ISH BERUVCHINING FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	289
Karimberdiyeva Dilrabo Rasulovna	



BANK TAVAKKALCHILIKLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	296
Matkarimova Ayman Jengisbaevna	
O'ZBEKISTONDA AGROSUG'URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA HUQUQIY OMILLARI	303
Jo'rayeva Sarvinoz Baxtiyor qizi	
BOSHQARISHDA SUG'URTA INSTRUMENTLARINI QO'LLASH AMALIYOTI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	309
Mustafayeva Sevara Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	314
Qodirova Farangiz Komilovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF TOURISTS' HOTEL SELECTION PREFERENCES IN THE MAJOR TOURISM REGIONS OF UZBEKISTAN.....	320
Sardor Kuvandikov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH METODOLOGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI	329
Madenova Elmira Nizamatdinovna	
BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	334
Shoyev Davronbek Axmadjonovich	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHI KLASTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA TARMOQNI 2032-YILGACHA RIVOJLANTIRISHNI PROGNOZLASH.....	340
Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li	
YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJINING DRAYVERI SIFATIDA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH.....	349
Jannazarova Gauzar Kaipnazarovna	
Raxmatova Sevinch Sobir qizi	
O'ZBEKISTONDA IFRSGA O'TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING BOSHQARUV QARORLARIGA TA'SIRI: UZAUTO MOTORS MISOLIDA.....	353
Samaroxonov Asqarxon Jamolxon o'g'li	
Jo'rayeva Zahro Toshpo'latovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	358
Pyotr Kim	
TOSHKENT VILOYATI BO'STONLIQ TUMANIDA TURISTIK ZONALARNI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUVNING TASHKILIYIQTISODIY AHAMIYATI (DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA).....	364
Tolibboyev Zafarbek Axror o'g'li	
TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAVIY BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	372
Qarshiboyev Lochinbek Xusan o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI TAHLILINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	379
Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich	
QASHQADARYODA NODAVLAT UNIVERSITETLARINING TASHKILIY RIVOJLANISHI: TALABALAR VA XODIMLAR POTENSIALINI TARKIBIY VA DEMOGRAFIK TAHLIL.....	382
Rahimov Sardor Uralovich	



O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINING JOYLASHUVINING HOZIRGI HOLATI.....	388
Kudratov Muhammad Rustamovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STATISTIK MA'LUMOTLARNI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAHLIL QILISH IMKONIYATLARI.....	393
Umarov Abbos Nuriddin o'g'li	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ УЗБЕКИСТАНА И РОССИИ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОГРАНИЧЕНИЯ, СТРУКТУРНАЯ ВЗАИМОЗАВИСИМОСТЬ И СЦЕНАРИИ РАЗВИТИЯ.....	400
Муниса Турдибаева	
TURIZM SOHASIDA SIRKULAR IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	410
Yuldosheva Laylo Isroilovna	
MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	416
Oramov Jahongir Jo'rayevich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MUNOSABATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH.....	421
Ollokulova Feruza Mansurovna	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA YUQORI TEXNOLOGIK USKUNALARNI XARID QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UMUMIY EGALIK QIYMATI (TCO) KONSEPSIYASINING AHAMIYATI	428
Dadamuxamedov Abduvaxob Abduvaxidovich	



UDK: 658.5:330.142.211 O‘ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA YUQORI TEXNOLOGIK USKUNALARNI XARID QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UMUMIY EGALIK QIYMATI (TCO) KONSEPSIYASINING AHAMIYATI

Dadamuxamedov Abduvaxob Abduvaxidovich
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston sanoat korxonalarida yuqori texnologik uskunalarni xarid qilish samaradorligini oshirish masalasi umumiy egalik qiymati (Total Cost of Ownership, TCO) konsepsiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. An’anaviy yondashuvda xarid qarorlari ko‘pincha uskunaning boshlang‘ich narxiga tayanib qabul qilinadi, holbuki jahon amaliyotida xarid narxi uskunaning butun hayotiy sikli davomidagi umumiy xarajatlarning bor-yo‘g‘i 25–40 foizini tashkil etadi. Tadqiqotda TCO konsepsiyasining mohiyati, tarkibiy unsurlari va hisoblash metodikasi ochib berilgan, uning sanoat korxonalarida kapital xarajatlarni optimallashtirishdagi ahamiyati asoslangan hamda O‘zbekiston sharoitida qo‘llashga doir amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: umumiy egalik qiymati (TCO), hayotiy sikl xarajatlari, yuqori texnologik uskuna, xarid samaradorligi, kapital xarajat, ekspluatatsiya xarajatlari, sanoat korxonasi, xarid qarori.

Abstract. The article examines the issue of improving the efficiency of high-technology equipment procurement at industrial enterprises of Uzbekistan through the lens of the Total Cost of Ownership (TCO) concept. Under the traditional approach, procurement decisions are most often based on the initial price of the equipment, whereas in global practice the acquisition price accounts for only 25–40 percent of the total costs over the entire equipment life cycle. The study reveals the essence, structural elements and calculation methodology of the TCO concept, substantiates its role in optimizing the capital expenditures of industrial enterprises, and develops practical recommendations for its application in the conditions of Uzbekistan.

Keywords: total cost of ownership (TCO), life cycle costs, high-technology equipment, procurement efficiency, capital expenditure, operating costs, industrial enterprise, purchasing decision.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос повышения эффективности закупок высокотехнологического оборудования на промышленных предприятиях Узбекистана с позиции концепции совокупной стоимости владения (Total Cost of Ownership, TCO). При традиционном подходе закупочные решения чаще всего принимаются исходя из первоначальной цены оборудования, тогда как в мировой практике цена приобретения составляет лишь 25–40 процентов совокупных затрат на протяжении всего жизненного цикла оборудования. В исследовании раскрыты сущность, структурные элементы и методика расчёта концепции TCO, обоснована её роль в оптимизации капитальных затрат промышленных предприятий и разработаны практические рекомендации по её применению в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: совокупная стоимость владения (TCO), затраты жизненного цикла, высокотехнологическое оборудование, эффективность закупок, капитальные затраты, эксплуатационные расходы, промышленное предприятие, закупочное решение.

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiyotini jadal sanoatlashtirish va texnologik jihatdan yangilash bugungi kundagi ustuvor davlat siyosatining markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-fevraldagi PF-17-son “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni [1] bilan mahalliy ishlab



chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini texnologik jihatdan yangilash hamda xalqaro sifat standartlarini joriy etishga xizmat qiluvchi innovatsion yechimlarni o'zlashtirish vazifalari belgilab berildi. Bu jarayonning moddiy-texnik negizini yuqori texnologik uskuna va jihozlar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning 1-mart holatiga respublikada 56,8 mingta sanoat korxonasi faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, ishlab chiqaruvchi sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushi atigi 1,0 foizni tashkil etadi, bu esa korxonalarini zamonaviy, ilg'or uskunalar bilan jihozlash zarurligini yaqqol ko'rsatadi. Yuqori texnologik uskunalarning aksariyati Avstriya, Germaniya, Italiya, Xitoy va AQSh kabi davlatlardan import qilinayotgani, ularning narxi yuqoriligi va ekspluatatsiyasi murakkabligi xarid qarorlarining iqtisodiy asosligiga alohida talab qo'yadi.

Amaliyotda sanoat korxonalari yuqori texnologik uskuna xarid qilishda, aksariyat hollarda, faqat uskunaning dastlabki xarid narxiga tayanib qaror qabul qiladi. Bunday yondashuv ayrim hollarda iqtisodiy jihatdan yetarlicha asoslanmagan bo'lishi mumkin, chunki uskunaning butun xizmat muddati davomida yuzaga keladigan ekspluatatsiya, energiya, ta'mirlash, to'xtab qolish va utilizatsiya xarajatlari e'tibordan chetda qoladi. Natijada dastlab arzon ko'ringan uskuna uzoq muddatda yuqori qo'shimcha xarajatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu muammoni hal etishda jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan umumiy egalik qiymati — Total Cost of Ownership (TCO) konsepsiyasi samarali metodologik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — TCO konsepsiyasining mohiyati va hisoblash metodikasini ochib berish, uning O'zbekiston sanoat korxonalarida yuqori texnologik uskunalarini xarid qilish samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini asoslash hamda amaliyotga joriy etishga doir takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umumiy egalik qiymati konsepsiyasining ilmiy asoslari XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshladi. Konsepsiyaning dastlabki amaliy ildizlari AQSh Mudofaa vazirligining mudofaa dasturlari bo'yicha umumiy xarajatlarni baholash amaliyotiga borib taqaladi. Ilmiy jihatdan TCO konsepsiyasini xarid (procurement) sohasiga tizimli tarzda tatbiq etish va uning nazariy asoslarini ishlab chiqish L. Ellramning (L. Ellram) tadqiqotlari bilan bog'liq. U TCO yondashuvi, ayniqsa, uzoq xizmat muddatiga ega, ta'mirlash, ehtiyot qismlar va saqlash xarajatlari yuqori bo'lgan kapital tovarlar — sanoat uskunalarini xaridida samarali ekanligini asoslab bergan.

B. Ferrin va R. Plank (B. Ferrin, R. Plank) tadqiqotlarida TCO tahlili texnologik uskunalar xaridiga kengaytirilib, xarid narxini solishtirishda tizimli ravishda e'tibordan chetda qoladigan yashirin xarajatlar toifalari — xodimlarni o'qitish, tizimga integratsiya qilish, tashkiliy o'zgarishlar va muqobil imkoniyatlar (opportunity) xarajatlari ajratib ko'rsatilgan. Bugungi kunda xorijiy tadqiqotchilar va amaliyotchilar TCO ni shunchaki hisoblash vositasi emas, balki xaridga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartiradigan boshqaruv falsafasi sifatida talqin etishadi.

Zamonaviy sanoat tadqiqotlarida TCO uskunaning butun hayotiy sikli (life cycle) bo'yicha xarajatlarni jamlovchi yaxlit ko'rsatkich sifatida qaralmoqda. Xususan, sanoat uskunalarini uchun xarid (acquisition) xarajati umumiy hayotiy sikl xarajatlarining o'rtacha 25–40 foizini, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari 30–45 foizini tashkil etishi, uzoq muddat ishlaydigan quvvat-sig'imli uskunalarda esa energiya xarajatlari TCO ning 60 foizigacha yetishi ko'rsatib o'tilgan. Bir qator xalqaro tahlillarda TCO yondashuvini joriy etgan korxonalar umumiy egalik xarajatlarini 22–25 foizga kamaytirgani qayd etiladi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi, modernizatsiyasi va investitsion samaradorligi masalalari keng o'rganilgan bo'lsa-da, yuqori texnologik uskunalar xaridida aynan TCO konsepsiyasini tizimli qo'llash masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu esa ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, tizimli va qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, shuningdek, iqtisodiy-matematik modellash tirish usullaridan foydalanildi. Xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy qarashlari umumlashtirildi, statistik ma'lumotlar (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi) tahlil qilindi. TCO ko'rsatkichini hisoblashda uskunaning butun hayotiy sikli bo'yicha xarajatlarni vaqt omili, ya'ni diskontlash hisobga olingan holda jamlash yondashuvi qo'llanildi. Shuningdek, metodning amaliy ahamiyatini ko'rsatish maqsadida ikki muqobil uskunani qiyoslash bo'yicha shartli hisob-kitob misoli ishlab chiqildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

TCO konsepsiyasining mohiyati. Umumiy egalik qiymati (TCO) — bu aktivni (uskunani) egallash, o'rnatish, ishga tushirish, ekspluatatsiya qilish, unga texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash va xizmat muddati tugagandan so'ng utilitatsiya yoki realizatsiya qilish bilan bog'liq barcha to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita xarajatlarning uskunaning butun hayotiy sikli davomidagi yig'indisidir. Boshqacha aytganda, TCO — “uskuna haqiqatda qanchaga tushadi?” degan savolga javob beradigan yaxlit moliyaviy ko'rsatkich bo'lib, u xarid narxidan ancha keng tushunchadir.

TCO konsepsiyasining asosiy ustunligi shundaki, u xarid qarorini qabul qiluvchilarga “aysberg effekti”ni ko'rsatadi: xarid narxi aysbergning suv yuzasidagi ko'rinib turgan qismi bo'lsa, ekspluatatsiya, energiya, ta'mirlash va to'xtab qolish bilan bog'liq xarajatlar uning suv ostidagi ko'rinmas, ammo hajman ancha katta qismini tashkil etadi. Shu bois faqat xarid narxiga asoslangan qaror uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni pasaytirishi mumkin.

TCOning tarkibiy unsurlari. Yuqori texnologik uskuna uchun TCO odatda quyidagi xarajat guruhlaridan tashkil topadi:

Egallash xarajatlari — uskunaning shartnoma narxi, bojxona to'lovlari, transport, yetkazib berish, montaj, ishga tushirish va dastlabki sozlash xarajatlari;

Ekspluatatsiya xarajatlari — elektr energiyasi, yoqilg'i, suv, sarf materiallari, operatorlar mehnat haqi va boshqa joriy xarajatlar;

Texnik xizmat va ta'mirlash xarajatlari — rejali profilaktik xizmat, ehtiyot qismlar, tuzatish ta'miri, servis shartnomalari xarajatlari;

To'xtab qolish (downtime) xarajatlari — uskunaning nosozligi yoki ta'miri sababli ishlab chiqarish jarayonining vaqtincha to'xtashi natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar;

Xodimlarni o'qitish va malakasini oshirish xarajatlari — yangi uskunani samarali boshqarish uchun zarur o'quv va tayyorgarlik xarajatlari;

Utilitatsiya xarajatlari — uskunani demontaj qilish, utilitatsiya yoki realizatsiya qilish, ekologik talablarga rioya etish bilan bog'liq xarajatlar.

Ushbu xarajatlardan xizmat muddati oxiridagi uskunaning qoldiq qiymati chegirib tashlanadi. Shunday qilib, TCO ko'rsatkichi xarid narxi bilan cheklanib qolmay, uskunaning butun “hayoti” davomidagi iqtisodiy yukni to'liq aks ettiradi.

TCOni hisoblash metodikasi. Eng sodda ko'rinishda TCO quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$TCO = Kx + Ke + Kt + Kd + Ku - Kq,$$

Bu yerda: Kx — egallash xarajatlari; Ke — ekspluatatsiya xarajatlari; Kt — texnik xizmat va ta'mirlash xarajatlari; Kd — to'xtab qolishdan ko'rilgan zararlar; Ku — utilitatsiya xarajatlari; Kq — uskunaning qoldiq qiymati.

Kapital tovarlarning xizmat muddati uzoq bo'lgani sababli turli yillarga tegishli xarajatlarni to'g'ri solishtirish uchun ularni vaqt omili — diskontlash stavkasi orqali joriy qiymatga keltirish maqsadga muvofiq. Bu holda diskontlangan TCO quyidagi ko'rinishni oladi:

$$TCO = Kx + \sum (Ke,t + Kt,t + Kd,t) / (1 + r)^t - Kq / (1 + r)^n,$$

Bu yerda: t — hisobot yili ($t = 1, 2, \dots, n$); n — uskunaning xizmat muddati (yil); r — diskontlash stavkasi. Bunday yondashuv turli boshlang'ich narxga va turli xizmat muddatiga ega uskunalarni “bir xil tilda” — umumiy egalik qiymati asosida obyektiv solishtirish imkonini beradi.

Qiyosiy hisob-kitob misoli. TCO yondashuvining amaliy ahamiyatini ko'rsatish uchun ikki muqobil sanoat uskunasi solishtiramiz. “A” uskunasi narxi arzonroq, ammo energiya sarfi yuqori va ta'mirlash ehtiyoji ko'p; “B” uskunasi esa qimmatroq, lekin energiya samaradorligi yuqori va ishonchliroq (shartli raqamlar, ming AQSh dollari hisobida, xizmat muddati — 10 yil):



1-jadval.

Ikki muqobil uskunaning umumiy egalik qiymati bo'yicha qiyosi (shartli ma'lumotlar)¹

Xarajat toifasi (10 yil uchun)	«A» uskunasi	«B» uskunasi
Egallash (xarid) xarajati	100	160
Energiya xarajatlari	220	120
Texnik xizmat va ta'mirlash	130	70
To'xtab qolishdan zarar	60	20
Utilizatsiya xarajati	15	10
Qoldiq qiymat (-)	-10	-25
Jami TCO	515	355

Jadvaldan ko'rinadiki, boshlang'ich narxi bo'yicha "A" uskunasi "B" uskunasi 60 ming dollarga arzon. Biroq butun hayotiy sikl bo'yicha umumiy egalik qiymati hisobga olinganda, "B" uskunasi 160 ming dollarga, ya'ni taxminan 31 foizga arzonroq tushadi. Demak, faqat xarid narxiga tayanib qaror qabul qilinsa, korxonada uzoq muddatli xarajatlardan kamroq samarali tanlov qilgan bo'lar edi. Bu misol TCO konsepsiyasining xarid samaradorligini oshirishdagi hal qiluvchi rolini yaqqol namoyon etadi.

TCOning sanoat korxonalarida uchun ahamiyati. Tadqiqot natijalari TCO konsepsiyasini joriy etish O'zbekiston sanoat korxonalariga quyidagi imkoniyatlarni berishini ko'rsatadi. Birinchidan, u xarid qarorlarini obyektiv, dalillarga asoslangan holda qabul qilish imkonini beradi va dastlabki narxi past, biroq keyingi xarajatlari yuqori bo'lgan uskunani tanlash xavfini kamaytiradi. Ikkinchidan, yetkazib beruvchilarni nafaqat narx, balki energiya samaradorligi, ishonchlilik, servis shartlari va ehtiyot qismlar ta'minoti bo'yicha kompleks baholashga yo'l ochadi. Uchinchidan, kapital xarajatlarni rejalashtirish va budjetlashtirish aniqligini oshiradi, chunki uskunaning kelajakdagi xarajatlari oldindan hisobga olinadi.

To'rtinchidan, TCO tahlili uskunani ta'mirlash yoki yangisiga almashtirish (repair-versus-replace) to'g'risidagi qarorlarni asoslashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Beshinchidan, energiya va resurs samaradorligi yuqori uskunalarni tanlashni rag'batlantirish orqali korxonaning barqaror rivojlanish va ekologik maqsadlariga erishishiga hissa qo'shadi. Bu, o'z navbatida, PF-17-son Farmonda [1] belgilangan mahsulot tannarxini pasaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish vazifalariga to'g'ridan-to'g'ri xizmat qiladi.

Shu bilan birga, TCOni joriy etishda ayrim qiyinchiliklar mavjud: ekspluatatsiya va ta'mirlash xarajatlari bo'yicha ishonchli ma'lumotlarning yetishmasligi, prognozlashdagi noaniqlik hamda hisob-kitobni haddan tashqari murakkablashtirish xavfi. Shuning uchun korxonalarda xarajatlardan kamroq samarali tanlov qilgan bo'lar edi. Bu misol TCO konsepsiyasining xarid samaradorligini oshirishdagi hal qiluvchi rolini yaqqol namoyon etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot yuqori texnologik uskunalar xarid qilishda faqat boshlang'ich narxga tayanadigan an'anaviy yondashuv iqtisodiy jihatdan asossiz ekanligini ko'rsatdi. Umumiy egalik qiymati (TCO) konsepsiyasi uskunaning butun hayotiy sikli davomidagi xarajatlarni yaxlit baholash orqali xarid samaradorligini obyektiv oshirish imkonini beradi. Shartli hisob-kitob misoli qimmatroq, ammo samaraliroq uskunaning umumiy egalik qiymati arzonroq uskunaga nisbatan sezilarli past bo'lishi mumkinligini tasdiqladi.

O'zbekiston sanoat korxonalarida TCO konsepsiyasini amaliyotga keng joriy etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

yuqori texnologik uskunalar xaridida xarid qarorini asoslashning majburiy bosqichi sifatida TCO tahlilini joriy etish, buning uchun korxonalarda standartlashtirilgan TCO hisoblash uslubiyoti va shablonlarini ishlab chiqish;

tender va xarid hujjatlarida uskunaning nafaqat narxi, balki energiya samaradorligi, kafolat shartlari, ehtiyot qismlar ta'minoti va kutilayotgan ekspluatatsiya xarajatlari bo'yicha ma'lumotlarni talab qilish;

korxonalarda uskunalar bo'yicha ekspluatatsiya, ta'mirlash va to'xtab qolish xarajatlarni tizimli qayd etuvchi axborot tizimini, masalan, CMMSni yo'lga qo'yish;

xarid, moliya, muhandislik va ishlab chiqarish bo'linmalarini TCO metodologiyasi bo'yicha o'qitish va malakasini oshirish;

davlat xaridlari va sanoat kooperatsiyasi tizimida kapital tovarlar xaridida hayotiy sikl xarajatlarni baholash tamoyilini me'yoriy hujjatlar darajasida mustahkamlash.

¹ Manba: Muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan (shartli ma'lumotlar).



Ushbu takliflarning amalga oshirilishi sanoat korxonalarining kapital xarajatlarini optimallashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va pirovardida milliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 4-fevraldagi PF-17-son "Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8037362>
2. Ellram L.M. Total Cost of Ownership: An Analysis Approach for Purchasing // International Journal of Physical Distribution & Logistics Management. – 1995. – Vol. 25, No. 8. – P. 4–23. DOI: 10.1108/09600039510099928.
3. Ferrin B.G., Plank R.E. Total Cost of Ownership Models: An Exploratory Study // Journal of Supply Chain Management. – 2002. – Vol. 38, No. 3. – P. 18–29. DOI: 10.1111/j.1745-493X.2002.tb00132.x.
4. Ellram L.M., Siferd S.P. Total Cost of Ownership: A Key Concept in Strategic Cost Management Decisions // Journal of Business Logistics. – 1998. – Vol. 19, No. 1. – P. 55–84.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishi: 2025-yil yanvar–fevral oylari bo'yicha statistik axborot. – Toshkent, 2025. – Stat.uz.
6. Advanced Technology Services. Understanding Total Cost of Ownership in Manufacturing. – 2026.
7. Zeiger D. The Monthly Metric: Total Cost of Ownership // Institute for Supply Management. – 2017.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>